

## JAHON ADABIYOTI

UO‘K(UDC, УДК): 930.2(575.171) KBK 63.3.(5Ў)

EPISTOLYAR MANBALARDA ADABIY-ESTETIK QARASHLAR<sup>35</sup>**Xalliyeva Gulnoz Iskandarovna***O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti**Jahon adabiyoti kafedrası professori**filologiya fanlari doktori**E-mail: [gulnoz7410@mail.ru](mailto:gulnoz7410@mail.ru).**ORCID ID: 0000-0001-5013-0792***Sapayeva Feruza Davlatovna***O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti**Jahon adabiyoti kafedrası professori**filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori**E-mail: [feruzasapayeva86@gmail.com](mailto:feruzasapayeva86@gmail.com).**ORCID ID: 0009-0004-1079-8754*

## ANNOTATSIYA

## KALIT SO‘ZLAR

Ushbu maqolada epistolyar janrning o‘ziga xos xususiyatlari va sharqshunoslarning badiiy mahoratini belgilovchi adabiy-estetik qarashlar tahlil qilingan. Epistolyar manbalar – ilmiy yozishmalar va maktublar shunchaki muloqot vositasi emas, balki ijodkorning adabiy jarayon, til, uslub va davrning estetik talablariga bo‘lgan munosabatini ifodalovchi muhim manba sifatida tadqiq etiladi. Tadqiqot davomida taniqli sharqshunoslarning o‘zaro yozishmalari misolida ularning ijodiy laboratoriyasi, asar ustida ishlash jarayoni va estetik prinsiplari ochib berilgan. Maqolada epistolyar nutqning subyektiv va obyektiv jihatlari, ilmiy yozishmalarning janriy tabiati hamda ularning badiiy matn bilan bog‘liqligi ilmiy asoslangan. Muallif badiiy maktublarda muallif “men”i va davr ruhining aks etishi masalasiga alohida to‘xtalib, epistolyar merosning adabiyotshunoslikdagi o‘rnini belgilashga harakat qiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ilmiy yozishmalar rus sharqshunoslarining nazariy qarashlari va badiiy ideallarini tizimli o‘rganishda birlamchi hujjat vazifasini o‘taydi.

Epistolyar janr, adabiy-estetik qarash, rus sharqshunoslari, maktub, ilmiy yozishmalar, badiiy mahorat, ijodiy laboratoriya, muallif konsepsiyasi, uslub, adabiy tanqid, muloqot madaniyati

**Received:** December 17, 2025**Accepted:** December 23, 2025**Available online:** May 10, 2026

<sup>35</sup> **For citation (Iqtibos keltirish uchun, для цитирования):**

Xalliyeva G., Sapayeva F. Epistolyar manbalarda adabiy-estetik qarashlar. // Komparativistika (Comparative Studies). — 2026. — Vol.3, № 1(9) — B. 300-309.

**LITERARY AND AESTHETIC VIEWS IN EPISTOLAR SOURCES****Khaliyeva Gulnoz Iskandarovna***Uzbek State University of World Languages  
Professor of the Department of World Literature**Doctor of Philological Sciences**E-mail: [gulnoz7410@mail.ru](mailto:gulnoz7410@mail.ru)**ORCID ID: 0000-0001-5013-0792***Sapaeva Feruza Davlatovna***Uzbek State University of World Languages  
Professor of the Department of World Literature**Doctor of Philosophy in Philological Sciences**E-mail: [feruzasapaeva86@gmail.com](mailto:feruzasapaeva86@gmail.com)**ORCID ID: 0009-0004-1079-8754*

---

**ABSTRACT**

This article analyzes the specific features of the epistolary genre and the literary-aesthetic views that determine the artistic mastery of Oriental scholars. Epistolary sources-scientific correspondence and letters are considered not merely as a means of communication, but as an important source reflecting the author's attitude toward the literary process, language, style, and the aesthetic demands of the era. In the course of the research, based on the mutual correspondence of prominent Orientalists, their creative laboratory, the process of working on a text, and their aesthetic principles are revealed. The article provides a scholarly substantiation of the subjective and objective aspects of epistolary discourse, the genre-specific nature of academic correspondence, and its connection with the literary text.

The author pays special attention to the reflection of the authorial "self" and the spirit of the эпоха in literary letters, seeking to define the place of epistolary heritage in literary studies. The research findings demonstrate that academic correspondence serves as a primary source for the systematic study of the theoretical views and artistic ideals of Russian Orientalists.

**KEY WORDS**

Epistolary genre, literary-aesthetic views, Russian Orientalists, letter, academic correspondence, artistic mastery, creative laboratory, authorial concept, style, literary criticism, culture of communication.

**ЛИТЕРАТУРНО-ЭСТЕТИЧЕСКИЕ ВЗГЛЯДЫ  
В ЭПИСТОЛЯРНЫХ ИСТОЧНИКАХ****Халлиева Гулноз Искандаровна***доктор филологических наук,  
профессор кафедры мировой литературы**Узбекского государственного университета мировых языков**E-mail: [gulnoz7410@mail.ru](mailto:gulnoz7410@mail.ru)**ORCID ID: 0000-0001-5013-0792***Сапаева Феруза Давлатовна***доктор философии по филологическим наукам  
профессор кафедры мировой литературы**Узбекского государственного университета мировых языков**E-mail: [feruzasapaeva86@gmail.com](mailto:feruzasapaeva86@gmail.com)**ORCID ID: 0009-0004-1079-8754***АННОТАЦИЯ**

В данной статье проанализированы специфические особенности эпистолярного жанра и литературно-эстетические взгляды, определяющие художественное мастерство востоковедов. Эпистолярные источники – научная переписка и частные письма – рассматриваются не просто как средство общения, но и как важный источник, отражающий отношение автора к литературному процессу, языку, стилю и эстетическим требованиям эпохи.

В ходе исследования на примере переписки известных востоковедов раскрываются их творческая лаборатория, процесс работы над произведением и эстетические принципы. В статье научно обоснованы субъективные и объективные аспекты эпистолярной речи, жанровая природа научной переписки, а также её связь с художественными текстами.

Авторы уделяют особое внимание проблеме отражения в художественных письмах авторского «я» и духа эпохи, стремясь определить место эпистолярного наследия в литературоведении. Результаты исследования показывают, что научная переписка выполняет функцию первоисточника при системном изучении теоретических взглядов и художественных идеалов русских востоковедов.

**КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА**

Эпистолярный жанр, литературно-эстетические взгляды, русские востоковеды, письмо, научная переписка, художественное мастерство, творческая лаборатория, авторская концепция, стиль, литературная критика, культура общения.

## KIRISH

Arxivdagi ilmiy yozishmalar rus sharqshunosligining ajralmas qismidir. Rus olimlarining bir-biriga yozgan nomalari ular ilmiy faoliyatining uzviy bir qismi sifatida o‘zbek mumtoz adabiyotining o‘rganilishi, yaratilajak asarlar, shu davr ilmiy-adabiy muhiti haqida noyob ma’lumotlarni beradi. Epistolyar manbalar orqali fikr almashuv, baho, taqriz, tanqid, adabiy-estetik qarashlar haqida ma’lum tasavvurga ega bo‘lish, hatto ilmiy jamoatchilikka noma’lum yangiliklardan xabar topish mumkin. Bu borada A.N.Samoylovich, V.Bartold, I.Y.Krachkovskiy, V.Gordlevskiy, N.Ostroumov, A.A.Semenov va boshqa olimlarning ilmiy muloqotlari alohida diqqatga sazovordir. Masalaning bu tomoni o‘zbek adabiyotshunosligida hali tadqiq qilinmaganini hisobga olsak, mazkur epistolyar manbalarni o‘rganish fan tarixini yangi faktlar bilan boyitishi, A.N.Samoylovich ilmiy biografiyasini yanada ravshanroq yoritishi shubhasizdir.

A.N.Samoylovichning epistolyar merosi Rossiyaning turli fondlarida saqlanadi. Biz arxivlarda kuzatgan 256 ta xat namunalari orasida olimning V.V.Bartold (89 ta) va I.Y.Krachkovskiy (26 ta) bilan yozishmalari ko‘pchilikni tashkil qiladi. Rus adabiyotshunosligida olimning epistolyar merosi ma’lum darajada o‘rganilgan, nashr qilingan (Благова Г., 2008, 71), ammo o‘zbek mumtoz adabiyoti bilan bog‘liq jihatlar o‘rganilmagan. Bu o‘rinda masalaning aynan shu tomoniga e’tibor qaratildi va adabiyotimizning tadqiqi aks etgan muhim jihatlarini yoritishga harakat qilindi.

## ASOSIY QISM

Boshqa rus olimlaridan farqli ravishda A.N.Samoylovich mahalliy ziyolilar bilan ko‘proq muloqotda bo‘lgan va shu orqali o‘zbek tili va adabiyotini yaxshi o‘rgangan; o‘zbek xalqiga nihoyatda hurmat va e’tibor bilan qaragan. “Men uchun Sharqda bo‘lish, Vasilyev orolida (Sankt-Peterburg) bo‘lishdan ko‘ra muhimroq. Men – Majnun, Turkiston–Layli, Toshkent esa yor zulfidagi eng bebaho gavhar. Tabiatimda musulmonlarga qandaydir yaqinlik bor va men ular bilan tez chiqisha olaman” (Благова Г., 2008, 90), – deb yozgan A.N Samoylovich magistr paytidayoq ilmiy ijod yo‘lini O‘rta Osiyo bilan bog‘laydi.

Xorazm ahlining madaniyati, ilmga chanqoqligi, salohiyati haqida rus olimlari, sayohatchilari va harbiylar tomonidan juda iliq fikrlar bildirilgan. Masalan, N.N.Muravyov Xivaga sayohati davomida u yerda o‘z ona tilidan tashqari arab va fors tilida bemalol o‘qiy va yoza oladigan ko‘p ziyolilarni uchratgani haqida yozadi (Самойлович А., 42).

A.N.Samoylovich bu borada N.P.Ostroumovga yozgan xatida: “Biz noqobil mustamlakachilar taraqqiy qilgan musulmonlarga ma’rifat berishga haqli emasmiz, Xivada buni juda yaxshi bilishadi, men u yerda havas qilgudek iqtidorlarni ko‘rib

shunga amin bo‘ldim”, –deya fikr bildiradi (Mi doljno bit beznadyojno negodniye kolonizatori i ne nam prosveshat musulman. V Xive eto prekrasno ponimayut i tam polzuyutsya drugimi prosvetiteliyami, talanti kotorix kak ya ubedilsya dostoyni zavisti) (Самойлович А., 94). Bizningcha, A.N.Samoylovich mazkur xulosasini aynan missionerlik ruhida tarbiyalangan va shu asosda faoliyat yuritgan N.Ostroumovga bejiz yetkazmagan. Ehtimol, uning bu kabi dadil qarashlari qatag‘on qurboni bo‘lishiga ham sabab bo‘lgandir.

I.Y.Krachkovskiy A.N.Samoylovichga yozgan maktubida N.Ostroumovning yuqori iqtidorga egaligini qayd qilar ekan, uning ilmi siyosiy maqsadlarga xizmat qilayotganidan afsuslanadi. (...Жал что его наука служит другим селям) (Самойлович А., 1917, 45).

1909-yilda V.Bartold A.N.Samoylovichning nashr etilajak “Xorazmnomadan ikki parcha” maqolasi tahririga doir mulohazalar bitilgan xat yuboradi. Unda tarjimadagi ayrim o‘rinlarni tuzatish masalasi yoritiladi. “Дорогой Александр Николаевич. Посилаю Вам корректуру, которую прошу после пересмотра переслат в типографию. Два пункта в Ваших переводах внушают мне некоторые сомнения:

1) Хорошо ли Вы сделали, что на странице 080. перед словом рози, пропустили слова красие. Правда гул значит не только роза; но едва ли автор поставив перед гул слова кирмизи имел ввиду не витиеватий (светистий) эпитет, а только отличительный признак рози от других светов. Не лучше ли оставит “красие” или “алие”.

2) Уверени ли Вы что в 3-м четверостишии 2 отрывка реч идет о хане и наследнике. Не надо ли перевести “Кроме Бога никому не служивший, стал рабом твой хан, твой государ Хорезм” (Самойлович А., 1916, 156).

Nashr jarayonida A.N.Samoylovich tarjimada gul bilan bog‘liq o‘rinni tuzatadi, ammo to‘ra so‘zini xato ravishda yana avvalgi holatda, ya’ni valiahd shaklida qoldiradi.

Во‘stonda ochilib qirmizi gullar

В светниках свешивалис алие рози

Banda bo‘ldi xoning, to‘rang Xorazm

Слугами стали хан твой и наследник, Хорезм (Самойлович А., 1928, 292).

Yuqoridagi maktub mazmunidan shu narsa ma’lum bo‘ldiki, V.Bartold A.N.Samoylovich bilan yozishmalarida matn bilan bog‘liq jihatlarga ham jiddiy e’tibor bergan. Sana ko‘rsatilmagan yana bir nomasida V.V.Bartold olimning iltimosiga binoan So‘fi Olloyorning “Sabot ul ojizin” asari nashri bilan bog‘liq masalaga oydinlik kiritadi. “...насчет Суфи Алляра узнал, что его “Сабат ал-

аджизин” било издано в Казани Казембеком - по Дорну в 1845, по Григореву в 1847 с предисловием и с примечаниями (постараюсь его достать в Азиатском музее) (Самойлович А., 1928, 56).

Xatlarning birida A.N.Samoylovich nashrga tayyorlagan Bobur devoni va uning matn o‘qish malakasi to‘g‘risida V.V. Bartoldning quyidagi mulohazalarini kuzatamiz: “...листаю Диван Бабур, особенно мне понравились стихи об Индии, стихи о чаше и раскаяние. Забираться глубже не смею, тем более что Ви ограничиваете точным воспроизведением рукописи, не ставя даже ташидов и исправляя только явные описки, и то с оговоркой в примечаниях”(Самойлович А., 46).

Ma’lumki, V.V.Bartold 1908-1912-yillar davomida “Rossiya Arxeologiya jamiyati Sharqshunoslik bo‘limi “Axboroti” (“Записки восточного отделения Русского археологического общества”) jurnalining bosh muharriri lavozimida faoliyat yuritgan. A.N.Samoylovich V.V.Bartoldga yozgan maktublaridan birida jurnalning 1917-yilgi sonida chop qilingan N.N.Martinovichning Rumi va Sulton Valad she’rlari to‘plamiga oid maqolasini (Розанов М., 1900) ayovsiz tanqid qiladi. Unga yaqin do‘st va shogird sifatida bunday kamchiliklar nashrning obro‘sigaputur yetkazishi mumkinligini qayd qiladi, o‘rni bilan lirik chekinish qilib, Bobur misrasidan misol keltiradi: “... и на сей раз делюс с Вами мислями по поводу последнего тома Записок. Как и следовало ожидать напечатанная работа Мартиновича кишит недоразумениями. Автор прав: “...как издание текста так и перевод оставляет желат лучшего”, но виновен в этом не столько “непонимающий” переписчик, сколько- уви! “непонимающий” издатель – автор. Я в конце концов мирюс, памятью слова Бабур “Кто видал на этом свете добро,чтоби ожидат добра!”, но я не хочу мирится с тем, что не находят должной зашити:

- 1) научная репутация Записок
- 2) память моего учителя Мелиоранского, к ученикам которого причислен и Мартинович” (Самойлович А., 1913-1914).

Tahlilimizdagi keyingi noma bizga chet elda A.N.Samoylovichning maqolalari doimiy chop etilib turilgani, ularning nashri va tahririda yevropalik olim T.Menselning alohida o‘rni bo‘lgani haqidagi muhim ma’lumotni beradi. Jumladan, V.Bartold o‘z maktubida T.Mensel unga Pragada chiqadigan “Orientalni” va Berlindagi “Der Islam” jurnallarini yuborganini ma’lum qiladi (Самойлович А., 1910, 56).

Ba’zi yozishmalardan rus va turk olimlarining ilmiy aloqalari, hamkorlikda ish olib borganini bilib olish mumkin. V.V.Bartoldning A.N.Samoylovichga 1927 yil 28 avgustda yozgan nomasidan ma’lum bo‘lishicha, Kupruluzoda unga ikkita

maqolasini yuboradi. Tuyuqlarga bag‘ishlangan ikkinchi maqolasida A.N.Samoylovichni ko‘p tilga oladi. Demak, bu bizga turk olimining A.N.Samoylovich maqolalaridan xabardor bo‘lgan deyishga asos beradi. “Kyopryulyuzade prislal mne ottiski iz dvux nomerov tipa “Turkiyat majmuasi”i “Tuyuk”, vo vtoroy statye neskolko raz upominayetes Vi” (Самойлович А., 1928, 56).

A.N.Samoylovichning I.Y.Krachkovskiy bilan ilmiy yozishmalari ham alohida ahamiyat kasb etadi. Bu nomalar ichida olimning Toshkent va Tiflisdan yozgan xatlari diqqatga loyiq. Jumladan, A.N.Samoylovichning 1916-yil 14-iyundagi Toshkentdan Peterburgga yozilgan nomasida 3 ta muhim ma‘lumotni olamiz: Birinchidan, u Majnun, Turkiston olim uchun Layli, Toshkent esa yor zulfining yorqin olmosi ekanligi. Ikkinchidan, kuzatish, qiyoslash va mulohaza yuritishga Turkiston sharqshunos uchun boy manba bo‘la olishi, uchinchidan “Xrestomatiya” nashri bo‘yicha ishlarning davom qilayotgani. “...я Меджнун, а Лейла – Туркестан, а Ташкент крупнейший, лучезарный брильянт в локонах красавитси. Счастье – в безуме. Востоковеду богатая почва для наблюдений, сравнений и размышления. Налаживаю издание хрестоматии” (Ромаскевич А., 1925, 54).

Olimning I.Y.Krachkovskiyga Tiflisdan jo‘natgan xatida Turkistonga safar unumli bo‘lgani, ammo Kavkaz safari hayron qoldirmagani, bu yerda u “Majnun” bo‘lolmagani haqida o‘qiymiz. “Туркестанская командировка закончена успешно. Тифлис не поразил и не очаровал. Здес я не Меджнун” (Российские экспедиции, 2008, 154).

A.N.Samoylovich arxivi kuzatilganida uning haqiqatdan ham turkiy adabiy manbalar bo‘yicha xrestomatiya –darslik yaratishni maqsad qilgani, dastlabki rejani tuzgani va bir necha papkada material yig‘ilgani ma‘lum bo‘ldi. Bu darslik “O‘rta Osiy turkiy adabiyoti va adabiy tili tarixi xrestomatiyasi” deb nomlangan. Olim unda XI asrdan tortib XX asr boshigacha ijod qilgan shoirlar merosini yoritishni rejalashtirgan (Самойлович А., 1928, 49).

A.N.Samoylovichning turkolog olim N.I.Ashmaringa yozgan maktubida (1925 yil, 2 fevral ) Xrestomatiyani tayyorlashda davom qilayotgani, “Qutadg‘u bilig” ustida ishlayotgani haqida o‘qiymiz: “Хрестоматию продолжаю подготавливать, сижу над “Кутадгу билик”. Одновременно с письмом Вам отправляю письмо Пепинову по поводу этой самой хрестоматии и сошлюсь на Ваше заявление мне о существующей потребности в подобном пособии” (Самойлович А., 1916, 53). Shu yili olimning V.V.Bartoldga yuborgan nomasida (1925 yil, 25-noyabr) Toshkentga “Qutadg‘u bilig” asarining qo‘lyozma nusxasi

keltirilgani, uning bu manbani tezroq ko‘rishi kerakligi va bu haqdagi izohlarni xrestomatiyaga kiritishi zarurligi ma’lum qilinadi.

Fitrat Moskvada A.N.Samoylovich bilan uchrashganida olimning “Qutadg‘u bilig” asarini nashrga tayyorlaganini biladi va bu borada o‘z taklifini shunday bayon qiladi: “Rusiyaning mashhur turkshunoslaridan professo‘r Samoylovich Moskvada men bilan ko‘rishganida “Devonu lug‘otit turk” dan foydalanib, “Qutadg‘u bilig”ning yangi bir bosmasini (tab’ini) tayyorlag‘anini bildirg‘an edi. Shuni bizning qo‘zlimizdag‘i nusxa bilan solishtirg‘andan so‘ng bostirsa edi, professor janoblarining bu ilmiy xizmatining bahosi juda ortqon bo‘lar erdi (Самойлович А., 1917, 57). Demak, A.N.Samoylovich Fitrat bilan bo‘lgan suhbatdan keyingina Toshkentda “Qutadg‘u bilig” asarining qo‘lyozma nusxasi mavjudligidan xabar topgan va V.V.Bartoldga yozgan xatida (1925 y) buni eslatib o‘tgan .

Demak, olim taxminan 1915-16 yillarda xrestomatiyani tuzishga kirishgan, 1938-yilgacha (olim qatag‘on qilingan yil) ehtimol ishni yakunlagan hamdir. Ammo biz kuzatgan arxivlarda hozircha bu manba to‘liq holda topilmadi. Balki siyosiy qatag‘on sabab olimning mol-mulki musodara qilinganda bu noyob manba yo‘qotilgan bo‘lishi ham mumkin.

Olimning arxivida unga polyak olimi A.Zayonchkovskiyning 1929-yil 7-sentabrda yozilgan maktubi ham saqlanadi. Xat mazmunidan ma’lum bo‘lishicha, olim A.N.Samoylovich bilan doimiy muloqotda bo‘lib, undan ilmiy ko‘rsatmalar olib turgan. Buni maktubning xotima qismidan bilish mumkin. (Признательный за научные указания, сердечно преданный и почитающий Вас...) (Ромаскевич А., 1925, 23) Maktubda A.Zayonchkovskiyning doktorlik ishini himoya qilgani, Polsha turkologlari olib borayotgan ilmiy ishlar va nashr qilinayotgan ilmiy jurnallar haqida xabar qilingan.

A.Zayonchkovski (1903–1970) A.N.Samoylovichning “Xisrav va Shirin” asari turkiy tarjimasiga oid ilmiy izlanishlarini davom qildirgan (Розанов М., 1900). G.F.Blagovanning ma’lumot berishicha, har ikkala olim 1936-yilda Stambulda, Turk tili qurultoyida uchrashgan va birin-ketin ma’ruza qilgan (Родоначальник узбекской литературы, 1940, 86).

A.N.Samoylovichning Moskva turkologiya maktabining yirik vakili V.A.Gordlevskiyga yozgan xatlaridan olim arxivining nihoyatda boyligi haqida bilib olish mumkin (Розанов М., 1900, 84-92). Jumladan, olim 1931-yil 30-oktabrdagi xatida tugallangan va tugallanmagan qo‘lyozma ishlarining yig‘ilib qolganligi, keyingi paytlarda ularni nashr qilishga vaqt topa olmayotganligi haqida yozadi. Maktublaridan yana birida (1931) A.N.Samoylovich Sankt-Peterburgdagi sharqshunoslik endi o‘zining yangi bosqichiga ko‘tarilgani, institutda jonli ilmiy faoliyat olib borilayotganligi haqida xabar qiladi (“...в Ленинграде растут и

крепнут новые силы по нашей общей спетсиальности, с новой методологией и новыми установками и подходами. Не знаю как у Вас, а у нас востоковедная жизнь становится с каждым годом интереснее и привлекательнее. Новое востоковедение, живое и широкое – уже не мечта, а факт, правда, еще в начале своего развития. Чувствую себя не стариком, а студентом или аспирантом, – что может бит счастливее такого самочувствия!” (Самойлович А., 1913-1914, 91).

### XULOSA

Xullas, epistolyar manbalar XX asr rus sharqshunosligidagi ilm ahliga deyarli ma’lum bo’lmagan yangiliklarni yuzaga chiqarishi bilan birga, rus-o‘zbek madaniy-adabiy aloqalari tarixida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Kelajakda maktublarni to‘liq tarjima qilish, alohida tadqiqot obyektini sifatida o‘rganish, fanni yanada yangi ma’lumotlar bilan boyitishi mumkin.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Благова Г.Ф. Александр Николаевич Самойлович. Научная переписка. Биография. – Москва: Восточная литература, 2008. – 71 с.
2. Архив. Александр Николаевич Самойловича. РАН. – Петербургский филиал Архива РАН Ф.782, оп.2, ед.хр.4.
3. Самойлович А.Н. Собрание стихотворений императора Бобура. ЧI. - Пг.:Издфак.вост языков, 1917.-90 с.
4. Самойлович А.Н. Драматическая литература сартов // Вестник Императорского общества Востоковедения.-СПб., 1916.-№5, -С.72-84.
5. Самойлович А.Н. К истории литературного средне-азиатско-турецкого языка // Сб. Мир Али Шир. -Л.:Изд. АН., 1928.-С.1-24.
6. Самойлович А.Н. Иранский эпос в литературе тюрк-ских народов Средней Азии // Сб. “Фирдоуси” -Л.:ИВАН и Гос.Э.,1934. -С.161-175.
7. Самойлович А.Н. Материалы по среднеазиатско-турецкой литературе. I. Краткая опись среднеазиатских рукописей собрания А.Самойловича // ЗВОРАО. –СПБ., 1910. Вып.1. -С.01-30.
8. Самойлович А.Н. Материалы по среднеазиатско-турецкой литературе II-II. II. Третье дополнение к указателю песеньМахтумкули. II. Стихи Доулет Мамеда моллы, отца Махтумкули// ЗВОРАО. – СПб., 1913-1914. Т.22 Вып.1-2. – С.128-158.
9. Родоначальник узбекской литературы // Сб. ста-тей. –Т.:Изд-во Узб. филиала Академии наук, 1940. – 220 с.
- 10.Розанов М. Современное состояние вопроса о методах изучения литературных произведений // Русская мысль. -М., 1900. -№4. - С. 171-182.

11. Розен В. Каталог Е.Каля // ЗВОРАО.-СПБ., Т.V. -СПб., 1890. -С. 123-125.
12. Ромаскевич А.А. Список персидских, турецко-татарских и арабских рукописей библиотеки Петроградского университета // Записки Коллегии востоковедов. – Л., 1925.–С.353-371.
13. Российские экспедиции в Центральную Азию на рубеже XIX-XX вв. Под ред. И.Ф. Поповой. –СПб.:“Славия”, 2008. –244 с.

#### REFERENCE

1. Blagova G.F. Aleksandr Nikolayevich Samoylovich. (2008). Scientific correspondence. Biography. Moscow: Oriental Literature, 71 p.
2. Archive. Alexander Nikolayevich Samoylovich. RAN. St. Petersburg Branch Archive of the Russian Academy of Sciences F.782, op.2, ed. chr.4.
3. Samoylovich A.N. (1917). Collection of Poems of Emperor Babur. Ch1. Pg.:Izdfak.vost yazikov, 90 p.
4. Samoylovich A.N. (1916). Dramatic Literature of the Sarts // Bulletin of the Imperial Society of Oriental Studies.-SPb., No5, P.72-84.
5. Samoylovich A.N. (1928). On the History of the Literary Central Asian-Turkish Language // Collection of Mir Ali Shir. L.:Izd. AN, P.1-24.
6. Samoylovich A.N. (1934). Iranian Epic in the Literature of the Turkic Peoples of Central Asia // Collection “Firdausi” L.:IVAN and Gos.E., Pp. 161-175.
7. Samoylovich A.N. (1910). Materials on Central Asian-Turkish Literature. I. A Brief Description of the Central Asian Manuscripts of the A. Samoylovich Collection // ZVORAO. СПб., Issue 1. P. 01-30.
8. Samoylovich A.N. (1913-1914). Materials on Central Asian-Turkish Literature II-II. II. Third addition to the index of songs by Makhtumkuli. II. Poems of Doulet Mamedamolli, ota Makhtumkuli// ZVORAO. St. Petersburg, Vol. 22, Vol. 1-2. - Б.128-158.
9. The Founder of Uzbek Literature // Collection of Articles. (1940). T.: Publishing House of the Uzbek Branch of the Academy of Sciences, 220 p.
10. Розанов М. (1900). Современное состояние вопроса о методах изучения литературных произведений // Русская мысль. М., No 4. С. 171-183.
11. Rosen V. (1890). Catalog of E. Kalya // ZVORAO. SPB., T.V. SPb., Pp. 123-125.
12. Romaskevich A.A. (1925). List of Persian, Turkish-Tatar, and Arabic Manuscripts of the Library of Petrograd University // Notes of the College of Orientalists. L., P.353-371.
13. Russian Expeditions to Central Asia at the Turn of the 19th-20th Centuries. (2008). Edited by I.F. Popova. St. Petersburg: Slavia, 244 p.